



“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

7	Nasiba SIDIKOVA, Sevinch G‘AFFOROVA, “Malika ayyor” dostoni variantlarida hasanxon obrazi tahlili	400
8	Nargiza UMURZAQOVA, Tohir Malikning “Odamiylik mulki” asarida Imom G‘azzoliy hikmatlarining o‘rni	405
9	Nurjahon RAHMONBERDIYEVA, Muhammad Alining “Avliyoning bashorati” dostonida tarix haqiqati va badiiyati	408
10	Mohinabonu RAHMATOVA, Nurota dostonchilik maktabining shakllanishi va rivojlanishi	412
11	Sanobar TURSUNOVA, Murod Mansurning “Judolik diyori” romanida diniy motivlar	414
12	Lobar AVAZOVA, Komiljon Imomov- o‘zbek xalq ertaklari tadqiqotchisi	417
13	Ozoda RAJABBOYEVA, “Xuastuanift” asarida qadimgi mifologik dunyoqarashning aks ettirilishi	421

5-SHO‘BA. FOLKLOR VA ADABIY ALOQALAR

1.	Matluba JABBOROVA, O‘zbek folkloridagi ayollar obrazining mumtoz adabiyotdagi transformatsiyasi	425
2.	G‘ayratbek XOLBUTAYEV, Komik folklor janrlari tizimi: genezis, poetika va semantik transformatsiya	428
3.	Abdukamol ABDUJALILOV, Sehrli ertaklarda motiv va obraz munosabati	433
4.	Ma‘mura RAMATOVA, Shimoliy Xorazmdagi ayrim tarixiy godonimlarini qiyosiy tahlil qilish	437
5.	Gulruh RAVSHANOVA, Muhammad Yusufning “Qora quyosh” dostonida poetik psixologizm	441
6.	Feruza TURDIMOVA, Muzayyana Alaviya adabiy merosida xalq og‘zaki ijodi va badiiyat uyg‘unligi	445
7.	Saodat JO‘RAYEVA, Bolalar folklori janrlarining badiiy va tarbiyaviy xususiyatlari	448
8.	Aziza SAYDULLAYEVA, O‘zbek-turk xalq sehrli ertaklarida soch obrazining mifopoetik talqini	451
9.	Huriniso XAYRULLAYEVA, “Qisasi Rabg‘uziy”da mavjud she‘riy parchalar badiiyatida folklor elementlarining ifodalanishi	454
10.	Sadoqat KAMOLOVA, “Masxara” obrazining badiiy-tarixiy funksiyasi (xalq og‘zaki ijodidan to bugungi kungacha bo‘lgan davr miqyosida)	456
11.	Shohzoda TURSUNBOYEVA, Mifologik va fantastik tafakkurda “barhayotlik” muammosining namoyon bo‘lishi	459
12.	Dilafruz MAHKAMOVA, “Bilga xoqon” romanida tarixiy xotira va turkiy qahramon xarakteri	463
13.	Nilufar DEHQONOVA, “Devonu lug‘otit-turk”dagi mifologik obrazlar va ularning folkloriy transformatsiyasi	468

KOMILJON IMOMOV- O'ZBEK XALQ ERTAKLARI TADQIQOTCHISI

KOMILJON IMOMOV - RESEARCHER OF UZBEKISTAN FOLK TALES

Lobar AVAZOVA,

O'zRFA 1-kurs tayanch doktoranti

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/HKGA3369

Annotation. *Komiljon Imomov is one of the leading scholars in Uzbek folklore who has deeply studied the genres of oral prose, in particular satirical and humorous tales. His monograph "Uzbek Satirical Tales" published in 1974 and subsequent articles scientifically analyzed the genre characteristics of tales, means of artistic depiction, the system of images, test motifs, rhetorical and imaginary elements, as well as the issues of classifying tales. The scholar paid special attention to the exposure of social injustice in satirical tales, the speech characteristics of positive and negative images, means of comedy, and the specific features and typology of characters of everyday tales. These studies are of great importance in revealing the ideological and artistic essence of Uzbek folk tales.*

Key words: *Komiljon Imomov, uzbek folk tales, satirical tales, humorous tales, fairy tale classification, household tales, satirical images, magic and fiction, trial motif.*

Taniqli folklorshunos Komiljon Imomov o'zining sarmahsul ilmiy faoliyati davomida og'zaki nasr janrlari (mif, afsona, rivoyat, ertak, naql, latifa, lof, og'zaki hikoya va boshqalar) tarkibi va badiiy -g'oyaviy xususiyatlarini izchil o'rgangan olimlardan biridir. O'z hayoti va faoliyatini xalq ijodini o'rganishdek sharaflilik ishga bag'ishlagan olim, tadqiqotchilik faoliyatining dastlabki davrini o'zbek satirik va yumoristik ertaklarining janr xususiyatlari badiiyati hamda obrazlar tarkibini jiddiy o'rganish tashkil etadi [Мирзаев 2021; 261]. Jumladan, olimning 1974-yilda bosilib chiqqan "O'zbek satirik ertaklari" nomli monografiyasida xalq ertaklarining alohida turlari hisoblangan satirik va yumoristik ertaklar janr xususiyatlari nuqtai nazaridan keng ko'lamda tadqiq etilgan. Tadqiqotda "satirik ertaklar o'zining g'oyaviy mazmunini ifodalovchi aniq, kuchli satirik chizig'iga ega"ligi, "satirik va yumoristik ertaklardagi an'anaviy uchlik o'zining qisqa bayoni bilan fantastik ertaklardan farq qilishi", "ertaklar syujet to'qimasiga singdirilgan satira, yumor, salbiy va ijobiy qahramonlar xarakterini aniqlovchi badiiy vosita" [Имомов 1974] vazifasini bajarishi ilmiy asoslab berilgan. Shuningdek, olimning "Ertaklarda satirik obrazlar ifodasi, komizm vositalari" nomli maqolasida satirik ertaklarda ko'proq real voqealar aks ettirilib, ishtirok etuvchi qahramonlari hajviy va yumoristik obrazlar bo'lishi ta'kidlangan. Shuningdek, o'zbek satirik ertaklaridagi ijobiy va salbiy obrazlarning individual xususiyatlarini ochib berishda til katta rol o'ynashi aytib o'tilgan. Ayniqsa, ijobiy komik qahramonlar nutqida o'zbek tilining rang-barang leksik boyliklari, tasviriy vositalari, undagi hazil-mutoyiba, qochirim kabi jozibali so'z o'yinlari namoyon bo'lib, ular qahramonning u yoki bu xususiyatini oydinlashtiradi va g'oyaviylikni kasb etadi. Obrazlardagi nutq sinfiy mohiyatni ifodalashi bilan ajralib turadi. So'zsiz, kambag'al sinf vakilining nutqi o'zining boy mazmuni, o'tkir tanqidiy xarakteri bilan ajralib turadi: "Axtarib, surishtirib yurib xo'rozni topib oldim. Bir boynikida dehqonchilik qilib yurgan ekan. Ko'rishib omonlashib, hol-ahvol so'rasam, olti oy ishlagan haqi bir juvoldiz bo'libdi, uni ham xo'jayini nasiya qilibdi. Xo'jayini bilan urishib, juvoldizni undirib oldim. Xo'rozga "yur ketamiz" desam "tag'in olti" oyga yurganman, uch oyi o'tdi, qolgan uch oyini bitirib, to'qimni olib o'zim boraman" dedi. ("O'zbek ertaklari", 1939-yil, 42-bet) Satirik ertaklar g'oyaviy mazmunining ifodasida faqat salbiy obrazlarga emas, balki ijobiy obrazlar ham hal qiluvchi muhim rol o'ynaydi. Ijobiy qahramonlar ma'naviy hamda sinfiy kurash fonida qo'rqqanlik, chidamlilik, chaqqonlik, aqllilik kabi ajoyib fazilatlarini namoyon qiladilar. Salbiy personajlar

talqinida komizm vositalarining roli ahamiyatli bo‘lib, ulardan biri- tasodifiy vaziyatdir. “Ahmoq podsho” (inv. № 347) ertagidagi favqulodda vaziyat – podshoning dorga osilishi, hukmdorning o‘ta mansabparast, xasis, kaltafahmlik kabi xususiyatlarini chizsa, “Ikki o‘jar” (“Xorazm ertaklari”, 1961) yumoristik ertagidagi o‘jarning suvga cho‘kayotganda ham barmoqlarini qaychi qilib, cho‘kish vaziyatlari undagi o‘jarlikni o‘ta mubolag‘a shaklida bo‘rttirib belgilaydi. Demak, favqulodda vaziyat yoki so‘zsiz holat- satirik va yumoristik ertaklarga xos belgi. U obrazlar ifodasida alohida tomonlarini yoritib turadi va shu bilan birga ba‘zi bir umumlashma obrazlardagi individual xarakterlarni ochadi.

Olim o‘zining monografik tadqiqotida ertaklarni an‘anaviy motivlar tarkibi, personajlar tizimi va konflikt xarakteriga ko‘ra ikki turga, ya‘ni sehrli va hayotiy ertaklarga ajratadi. Sehrli ertaklarni ham, o‘z navbatida, tilsimli, tilsimsiz va “mitti” polvonlar haqidagi ertaklarga ajratib tasniflaydi. Uning bu tasnifiga ko‘ra, majoziy ertaklar ham sehrli ertaklar sirasiga kiritilgan. Hayotiy ertaklarni esa jangnoma ertaklar, ishqiy- sarguzasht ertaklar, hajviy ertaklarga ajratadi. Hajviy ertaklarni satirik va yumoristik ertaklarga bo‘ladi. Aslida hayvonlar haqidagi ertaklarni alohida tur sifatida olib, ularning ayrimlarining majoziy ertaklarga aylanib borish jarayonini ko‘rsatish lozim edi. Buni olim o‘zining keyinroq yozgan “O‘zbek xalq ertaklarining tasnifi” maqolasida hisobga oldi va o‘zbek xalq ertaklarini uch turga bo‘lib tasnifladi va har bir guruhga mansub epik asarlarning o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy tavsiflab berdi [Имомов 1993;21]. Jumladan, mavjud tasniflarda barqarorlik yetishmasligini, ularda ichki turlar nomini noaniq belgilash, bir xil ertakni ikki xil nomda takrorlash, turlar sonini o‘rinsiz kamaytirish yoki orttirish kabi hollar uchrashini ta‘kidlaydi.

Komiljon Imomov “Maishiy ertaklarning asosiy xususiyatlari va tasnifi” maqolasida esa maishiy ertaklarning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashda ularning aniq mavzui, kompozitsiyasi, asosiy g‘oya va konfliktlar mazmunidan kelib chiqib, ijtimoiy-siyosiy va oilaviy-maishiy kabi 2 turkumga bo‘lib o‘rganish yaxshi samara berishini ta‘kidlaydi. Ijtimoiy-siyosiy ertaklarda asosiy mavzuni tengsizlik va adolatsizlik, oilaviy- maishiy ertaklarda esa axloq va odob bilan bog‘liq masalalar tashkil etishini aytadi. Ya‘ni ijtimoiy-siyosiy ertaklarda, asosan, ijtimoiy adolatsizlik va sinfiy kamsitishlar fosh etilsa, oilaviy-maishiy ertaklarda esa voqealar va hodisalar oila, urug‘ atrofida yuz beradi. Asosiy urg‘u axloqiy kamchiliklarga beriladi.

Olim maishiy ertaklardagi personajlarni 3ta asosiy tipga ajratadi. Bosh qahramon yordamchi va epik raqib obrazlar. Maishiy ertak qahramoni sehrli ertaklarda bo‘lganidek botir, pahlavon, jangchi emas, balki oddiy so‘zamol, aniqrog‘i, aqliy qudrati bilan farqlanishini ta‘kidlaydi. Shuningdek bosh qahramon maxsus nomga ega bo‘lmay, asosan laqab nom tarzda namoyon bo‘ladi. Masalan, “kal” (tentak kal, ayyor kal) so‘zi nom emas, aslida qadimgi tabu (taqiq) zahirida yuzaga kelgan atama bo‘lib, laqab ma‘nosida keladi va qahramonning o‘tkir aql-idrokidan darak berib turadi.

Yordamchi personajlar sehrli ertaklarda bo‘lganidek sirli narsa va hodisa, parranda yoki darranda, sehrli predmet, tilsim vositalari tarzida emas, oddiy kishilar – dono xotin, mehmon, o‘tinchi chol, qiz, gadoy va nihoyat hayotiy ifodalangan narsa va hodisalardan tashkil topadi. Bu xil personajlar yordamchi vazifasini ado etib, bosh qahramon maqsadining amalga oshishiga ko‘maklashadilar.

Raqib obrazi esa sehrli ertaklarda bo‘lganidek, xayoliy emas, balki hayotiy ayni paytda, zolim shoh, mo‘ltoni, g‘irrom kishilar sifatida namoyon bo‘lib, zulm va zo‘rlikka amal qilgan holda yovuzlik timsoli kabi faoliyat ko‘rsatadi. Uning asosiy funksiyasi hukmdorlik siyosatini o‘tkazishdan iboratdir.

Maishiy ertaklarda mubolag‘a, sifatlash, o‘xshatish kabi badiiy tasvir vositalaridan foydalanish bu turdagi ertaklarning tabiatini belgilar ekan, to‘qnashuvlarni hayotiy, ayni paytda kulgili tasvirlash imkoniyati bilan ham farqlanib turadi.



Maishiy ertaklarda maqollar ham keng qo‘llanilib, ular ertakdagi fikr, mulohazalarning jonli va badiiy chiqishini ta‘minlab, mantiqiy asoslash hamda salbiy harakat va holatni qoralash ideal g‘oyalarni ma‘qullash maqsadida qo‘llangan. Maqollar turli maqsadlarda qo‘llanilgan, jumladan, qissadan hissa chiqarish uchun – “Qozi boydan umid qilib, “Kel qarg‘a qarg‘aning ko‘zini cho‘qimasin” deb novchani haydabdi; sarlavha tarzida – “Yoqma pisharsan, qazma tusharsan”, “Maqtanma g‘oz, hunaring oz”;

Bu maqolada shuningdek, ertaklardagi boshlanma va tugallanmalar haqida ham qisqacha to‘xtalib o‘tilgan.

O‘zbek xalq ertaklarida an‘anaviy sinovning 2 xil ko‘rinishi, ya‘ni topishmoqli sinov va musobaqa sinovi mavjudligi aniqlangan. Komiljon Imomov o‘zining “Ertaklarda sinov motivi” maqolasida ertak qahramonining jismoniy, ma‘naviy sifatlari musobaqa sinovi orqali, zakovati va fahm-farosati topishmoqli sinov orqali aniqlanishini yozadi. Musobaqa sinovlari xayoliy ertaklarda ko‘proq uchrashi, hayotiy- satirik ertaklarda esa topishmoqli sinov qo‘llanilib, u 2 shaxs o‘rtasidagi dialog-sifatida vujudga kelishini takidlaydi. Mazkur sinovlar “Dono qiz”, “Zarkokilli yigit”, “Ayozi”, “Gulfarah” kabi ertaklarda yorqin namoyon bo‘lganligi aytiladi. “Dono qiz” (inv. № 1403) satirik ertagidagi topishmoqli sinovning maqsadi qizdagi xarakterni belgilash, vazifasi esa, uning donoligini isbotlashdan iboratdir. Masalan, ertaklarda shoh bo‘lajak qaylig‘iga quyidagi topishmoqli savollarni beradi: 1. “Shirindan shirin nima?” 2. “Achchiqdan achchiq nima?” 3. “Ho‘kizni bolalatib ber”. Bu savollarga qiz quyidagicha javob qaytarib: 1. “Shirindan shirin- bola shirin”. 2. “Achchiqdan achchiq – o‘lim achchiq”. 3. “Dadam hammonga tuqqani ketgan, kelsa javobini aytaman”, - deydi.

Olim ushbu maqolasida satirik ertaklardagi sinov motivining 2 vazifasini sanab o‘tadi:

1. Bo‘lajak taxt egasini aniqlash;

2. Ijtimoiy hayot kamchiliklarini, feodal davlatning qonun- qoidalarini fosh etib tashlash;

Ikkinchi vazifa satirik va yumoristik ertaklarning eng muhim belgisini ifodalaydi. Olim ushbu maqolasida faqat topishmoqli sinov motivini keng yoritgan. Musobaqa sinoviga qisman to‘xtalgan.

Komiljon Imomovning “Ertaklarda tilsim” maqolasida epik asarlarda tilsim va uning funksiyasini o‘rganish u yoki bu janrga xos bo‘lgan belgi-xususiyatlarni, badiiy tasvir vositalarini aniqlash imkonini berishini ta‘kidlaydi. Buning uchun avvalo, tilsim sirlari, ta‘rif va tarixi, tashkil topgan manbai, uning ertak va dostonlarda tutgan o‘rni, o‘ziga xos xususiyati va funksiyasini belgilash lozimligi aytilgan. Shuningdek, maqolada “fantastika” hamda “tilsim” so‘zlari ayni ma‘noni ifodalashini, ya‘ni bu ikki tushuncha ham hayotiylikdan holi bo‘lib, faqat sirlilikni, sehrarlik alomatlarini ifoda etishini keltirib o‘tgan. Fantastika- grekcha so‘z bo‘lib, keng ma‘noni bildiradi. U o‘zbek va boshqa tillarda xayol, xayol qilish yoki xayoliy uydirmani ifoda etadi. Biroq ularning birortasi ham fantastika so‘zining to‘liq va aniq mazmunini ocha olmaydi. Chunki xayol reallik chegarasida yoki undan tashqarida bo‘lishi mumkin. Ana shu real va noreal xayollar bir butun holda fantastika so‘zining tom ma‘nosini ocha oladi. Xayolning realistlik formasi voqea va hodisalarni haqiqatga mos, tabiiy holda ifodalaydi. Xayolning noreal formasi esa, hodisalarni haqiqatga zid, g‘ayri moddiy holda tasvirlaydi (yalmog‘iz, dev, ajdar, pari va boshqalar). Tilsim esa, ana shu xayolning noreal formasidan kelib chiqadi. Tilsim-arabcha so‘z bo‘lib, ibtidoiy tushunchalarga ko‘ra, sehr-jodu kuchi bilan turli xil ajoyib va qiziq shakldagi narsa va hodisalarning namoyon qilinishidir (sehrli olma, sirli suv, oynaijahon, bir dumalab kaptar bo‘lish, bir gaz, yozsa qiriq gaz bo‘ladigan qilich va boshqalar). Ko‘ramizki, tilsim mazmun e‘tibori bilan xayoldan qisman farq qiladi. Xayol umumiylikni ifoda etsa, tilsim xususiylikni ifodalaydi. Demak, tilsimli uydirmalarning holi bo‘lib, faqat sirlilikni, sehrarlik alomatlarini ifoda etadi. Shuni e‘tiborga olganda, bu so‘z yuqorida qayd etilgan termin mazmunini aniq va mufassal izohlab beradi va oydinlashtiradi.

“Xayolning noreal formasi xayoliy uydirma, uning tabiiy formasi hayotiy uydirmalardir”, - deydi olim o‘z maqolasida. Tilsimot bilan bog‘liq bo‘lgan xayoliy uydirmalar folklor asarlarida 2 xil variantda kelishi va turli xil funksiyani ado etishi haqida ma’lumot berilgan:

a) Tilsimot bilan bog‘liq bo‘lgan xayoliy uydirmalarning ibtidoiy varianti - qadimiy eski tushuncha, ko‘hna inson ongida paydo bo‘lgan xohish, e’tiqod, noaniq ko‘ringan narsa va hodisalarning timsoli. Bunday holda tilsim afsun bilan bog‘liq holda kelib, uning natijasi sifatida namoyon bo‘ladi va u badiiy vosita deb qaralmaydi. Xayoliy uydirmalarning ibtidoiy variantida nisbatan xalq ishonchining elementlari sezilib turadi. Masalan, “Opa-uka” ertagida “Bir joyda ko‘lmak suv ko‘rinibdi. Bola : suvni ichay, degan ekan, opasi: ichma, bu kiyikning ichadigan suvi, debdi. Bola: ichsam nima bo‘ladi, debdi. Opasi: ichsang kiyik bo‘lib qolasan, debdi. Ukasi opasining so‘ziga kirmay shu suvdan ichgan ekan, kiyik suratiga kirib qolibdi.” [Ўзбек халқ эртаклари, II том, 1960;118] Ibtidoiy inson ongida sirli va mo‘jizakor ko‘ringan suvning xususiyati xayoliy uydirmaga aylangan va ertaklarda suv bilan bog‘liq bo‘lgan tilsim vujudga kelgan. Qahramonning ko‘zini ochgan, tiriltirgan, uni bo‘riga, bo‘rini odamga aylantirgan “Obi zam-zam”, “Obi hayot”, “Bahrul hayot suvi” kabilar ana shundan dalolat beradi.

b) Tilsimot bilan bog‘liq bo‘lgan xayoliy uydirmalarning keyingi varianti- tom ma’nodagi badiiy tasvir vositasiga aylangan. Bunda tilsim afsun bilan bog‘lanmaydi. Ya’ni keyinchalik yaratilgan ertak va dostonlarda mavjud xayoliy uydirmalar ertakchi tomonidan shartli ravishda qo‘llanilgan. Masalan, “Ur to‘qmoq”, “Ochil dasturxon”, “Oltin tarvuz” va boshqalar ertakchi va hatto tinglovchida ham ishonch tug‘dirmaydi. Bunday holda u faqat bir maqsad , yomonlikni fosh etish, adolatni maqullash uchun qo‘llangan.

Tilsimli uydirmalarning nisbatan keyingi variantlarida mo‘jizaga ishonchning susaygani, nihoyat badiiy to‘qima – fosh etish quroliga aylanganligi ko‘zga tashlanadi.

Demak, tilsim va tilsimot bilan bog‘liq bo‘lgan hayotiy uydirmalar, birinchidan ertak va doston syujetida sirlilik yaratadi, ikkinchidan esa, u asarning ta’sirchan qudratini orttiradi va nihoyat, qahramonlar ruhiyatini oydinlashtiradi, tinglovchida estetik zavq qo‘zg‘ab, o‘ylash, fikrlash ko‘nikmalarini oshiradi.

Komiljon Imomov hayotiy uydirmalar asosan tilsim bilan bog‘liq bo‘lgan xayoliy uydirmalar zaminida tashkil topganligini, keyinchalik tarixiy taraqqiyot rivojlanib, olam haqida yuzaga kelgan tushunchalar tom ma’noda to‘g‘ri va aniq ma’no kasb eta boshlagan davrdan boshlab, xayoliy uydirmaga nisbatan ishonch tugaganligini aytib o‘tadi. Natijada xayoliy uydirmalar o‘rnini hayotiy uydirmalar egallaganligini va ular hajviy, didktik mazmundagi ertaklarning asosini tashkil etishini ta’kidlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Komiljon Imomovning tadqiqotchilik faoliyatiga nazar tashlagan kishi uning ilmiy qiziqishlari doirasida o‘zbek xalq ertaklarini o‘rganishga bo‘lgan intilish alohida o‘rin tutganligini ko‘radi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзаев Т. Устозлар, сафдошлар, издошлар. – Т.: Тафаккур томчилари, 2021. – Б. 261
2. Имомов К. Ўзбек сатирик эртаклари. – Т.: Фан, 1974
3. Ўзбек халқ эртаклари, II том. – Тошкент, 1960. – 118 б.
4. Имомов К. Ўзбек халқ эртакларининг таснифи//Ўзбек тили ва адабиёти. 1993. 1 сон. – Б. 21-26
5. Имомов К. Эртакларда сатирик образлар ифодаси комизм воситалари//Ўзбек тили ва адабиёти. -1968. 1 сон. – Б. 33-35
6. Имомов К. Маиший эртакларнингасосий хусусиятлари ва таснифи // Ўзбек тили ва адабиёти. 1995. 1-сон. – Б. 30-35
7. Имомов К. Эртакларда синов мотиви//Ўзбек тили ва адабиёти. 1968. 5 сон. – Б. 63-65
8. Имомов К. Эртакларда тилсим//Ўзбек тили ва адабиёти. 1977. 6 сон. – Б. 46-49